

**NAVOIY VILOYATIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING TARQALISHI
VA ULARNING OLDINI OLIB BO'YICHA OLIB BORILGAN ISHLARNING
TARIXIY TAHLILI**

Xalilova Zebiniso¹

¹ NavDU Tarix fakulteti talabasi

Xamrayeva Saodat¹

¹ Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.06.2025

Revised: 15.06.2025

Accepted: 16.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Oq inqilob,
industriallashtirish,
modernizatsiya, neft
iqtisodiyoti, davlat
kapitalizmi, Eron, Pahlaviy
rejimi.*

Mazkur maqolada Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy tomonidan 1963-yilda boshlangan “Oq inqilob” islohotlar dasturi doirasida amalga oshirilgan industrial siyosat va uning 1979-yilgi Islomiy inqilobgacha bo‘lgan iqtisodiy-siyosiy oqibatlari tahlil qilinadi. Maqolada modernizatsiya konsepsiysi, davlat kapitalizmi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning sanoatga ta’siri, tashqi kapital ishtiroki va ichki ijtimoiy ziddiyatlar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

KIRISH. Yuqumli kasalliklar inson salomatligiga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. Inson organizmi bilan kasallik qo‘zg‘atuvchi mikrobnинг ma’lum sharoitda o‘zaro ta’siri oqibatida yuzaga keladigan o‘zgarishlar yuqumli jarayon bo‘lib, bu jarayon kasallik alomatlari ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, u yuqumli kasallik deb yuritiladi¹. Ular virus, bakteriya, zamburug‘ yoki parazitlar orqali tarqalib, turli shaklda namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yuqumli kasalliklar global soliqni saqlash tizimining dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi, xususan Navoiy viloyatida ham yuqumli kasalliklar keng tarqalgan bo‘lib, buning asosiy sababi hududda ekologik vaziyatning buzilishi va hozirgi kunda global muammoga aylangan va

yer yuzi bo'ylab tarqalgan yuqumli kasalliklarning yoyilishidir. bu borada aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida viloyatda muayyan chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Navoiy viloyati geografik joylashuvi, sanoat salohiyati hamda aholining migratsion faolligi bilan ajralib turadi. Bu esa ayrim yuqumli kasalliklarning tarqalishi xavfini oshiradi. Viloyatda ayniqsa quyidagi yuqumli kasalliklar uchrashi ehtimoli ko'proq: respirator infeksiyalar (gripp, Covid-19), gepatit kasalligi, qon orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar.

Kutilmaganda, yer yuzi bo'ylab keng tarqalgan va o'zidan salbiy izlarini qoldirgan pandemiya davri O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lган ishlar ko'pligini isbotladi. Ushbu murakkab jarayonda O'zbekistonda bu kasallikning kirib kelishi va tarqalib ketishining oldini olish bo'yicha dastlabki ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Uzbekistan Airports" AJ hamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJda tibbiy-sanitariya xizmatini amalga oshirish choralar ko'rildi. Natijada, 2020-yil fevral oyining oxiriga kelib mamlakatdagi 12 ta aeroport, 5 ta temir yo'l vokzali va 53 ta chegara punktidagi sanitar karantin punktlarida nazorat ishlari samarali yo'lga qo'yildi⁷⁵. Zamonaviy tibbiyot tayyor bo'limgan bir paytda dunyo bo'ylab iqtisodiy tanglik bilan birga pandemianing paydo bo'lishi tibbiyotda muammoli holatlarni yuzaga chiqardi. Bu borada O'zbekistonda koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha salmoqli qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga jalb qilingan tibbiyot va sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4652-sonli Qarori, 2020-yil 24-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish tadbirlariga ajratilayotgan mablag'larning samaradorligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-583-sonli Qarori qabul qilindi. Qabul qilingan hujjatlarga asosan pandemiyaga qarshi aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 10 trillion so'm miqdorida mablag' ajratildi⁷⁶. Ushbu davrda sog'liqni saqlash tizimi tibbiyot sohasi xodimlariga katta ehtiyoj sezdi. Pandemiya davri Navoiy viloyatida ham o'zining jiddiy ta'sirlarini ko'rsatdi. Respublika maxsus komissiyasining 2020-yil 11-maydagi qarori bilan Zarafshon shahri "Qizil hudud" etib belgilanganligi hududda epidemiologik vaziyat keskinlashganligini ko'rsatdi. Shu sababli

⁷⁵ Соғлиқни сақлаш вазирлиги Жамоатчилик билан алоқалар бўлими. // Вазирлик аҳолини коронавирусдан хавотирга тушмасдан, огох бўлишга чорлайди.//URL: <https://www.minzdrav.uz/uz/news/detail.php?ID=57745>

⁷⁶ Умиров С. Коронавирус: илк сабоқлар, саволлар, ўйлар. // Янги Ўзбекистон. 2020 йил, 10 апрель.

viloyat epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasining shoshilinch yig‘ilishi tashkil etilib, unda Zarafshon shahri va NKMK davlat korxonasining ishlab chiqarish maydonlari (Bessapan, Muruntov, Dagiztov, Amantay va b.) hududida karantin choralarini kuchaytirish masalasi ko‘rildi⁷⁷. Aholi salomatligi uchun o‘ta jiddiy bo‘lgan karantin choralarini amalga oshirishni aynan viloyat hokimligi o‘z zimmasiga oldi. Pandemiya davrida aholi jismoniy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan aziyat chekdi va respublikada bo‘lgani kabi Navoiy viloyati uchun ham ayanchli oqibatlarni keltirib, asoratli iz qoldirdi. Viloyatda ushbu kasallik bilan kurashishda aholiga sadoqatli xizmat qilgan tibbiyot xodimlari va ularning jasorati vatan tibbiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Aytish joizki, shifokorlar pandemiya davrining haqiqiy qahramonlariga aylanishdi. Butun dunyo bo‘ylab tarqalgan koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashgan tibbiyot xodimlari fidoyilik ko‘rsata oldi. Respublikada o‘z kasbiga sadoqat bilan tinmay mehnat qilgan shifokorlar va hamshiralalar ko‘pchilikni tashkil etdi⁷⁸. Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatdiki, Navoiy viloyati sog‘liqni saqlash tizimi tibbiyot muassasalarida faoliyat olib borgan har bir xodim xalq salomatligi uchun o‘zini mas’ul hisoblab, jonbozlik ko‘rsatdi. Ayanchli tomoni shundaki, ushbu kasallik bilan kurashib, bemorga hayot baxsh etgan ko‘pgina tibbiyot xodimlarining o‘zi koronavirus qurbaniga aylanishdi. 2019-2020-yillar oralig‘ida viloyatda 19 ming 512 nafar aholi koronavirus bilan kasallangan bo‘lsa, ulardan 206 nafari vafot etdi. Shifokorlarning jasorati tufayli 19 ming 306 nafar aholi kasallikdan sog‘aydi⁷⁹.

Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, Navoiy viloyatida koronavirus kasalligi beshta o‘choq orqali tarqalgan. Birinchi katta o‘choq Zarafshon shahrida, ikkinchi va uchinchi o‘choq Xatirchi tumanida, to‘rtinchi o‘choq Konimex tumanida hamda beshinchi o‘choq Tomdi tumanida yuzaga kelgan. 2020-yil 30-may kuni Respublika maxsus komissiyasi tomonidan tumanlar va shaharlar bo‘yicha “qizil”, ”sariq”, ”yashil” hududlar ro‘yxati e’lon qilindi³.

Navoiy viloyati aholisi orasida virusli gepatit kasalligining keng tarqalishi tibbiyot oldidagi muhim muammolardandir. Gepatit – bu jigarni yallig‘lanishiga olib keladigan yuqumli kasallik bo‘lib, uning A,B va C turlari eng ko‘p uchraydi. Jumladan, 2019-yilda Navoiy viloyatining Langar qishlog‘ida 4 nafar maktab o‘quvchisida virusli gepatitning A turi aniqlangan. Ularning 2 nafarida kasallik laboratoriya tekshiruvlari bilan tasdiqlangan,

⁷⁷ Турсунов К., Алимов А. Пандемия ва масъулият. Навоий. “Mashhur-Press”. – 2020 – Б. 179-180.

⁷⁸ Сидиков А. Унинг хар бир куни қаҳрамонликдир. // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2020, –№25-26. – Б.6.

⁷⁹ Navoiy viloyati Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi joriy arxivi. 2021-yil ma’lumoti.

qolgan 2 nafar o‘quvchida esa tashxis rad etilgan. Epidemiologik vaziyatlar nazoratga olinib, profilaktika va dezinfeksiya ishlari kuchaytirilgan.

2022-yildan boshlab O‘zbekistonda har yili million nafargacha aholi gepatit B va C turlariga skrining tekshiruvlaridan o‘tkazilib kelinmoqda. Kasallik aniqlangan bemorlar bepul dori vositalari bilan ta’milanadi. Navoiy viloyatida ham 2022-2023-yillarda 1823 nafar tibbiyot xodimi gepatit B ha qarshi emlanishi rejalashtirilgan⁴ bo’lib, bosqichma bosqich amalga oshirildi.

Navoiy viloyatida qon orqali yuqadigan kasalliklar avj olgan bo’lib, , inson immun tanqisligi virusi (OIV, OITS) bilan bog‘iq holatlar sog‘liqni saqlash tizimi tomonidan diqqat bilan kuzatib borilmoqda. OIV (inson immun tanqisligi virusi) immun tizimini zaiflashtiradi va davolanmasa, OITS (orttirilgan immun tanqisligi sindromi)ga olib keladi. Virus asosan qon, jinsiy aloqa yoki onadan bolaga yuqadi. OITS kasalligini oldini olish maqsadida Navoiy viloyatida quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

1. Aholi o‘rtasida profilaktik tadbirlar: OITS haqida aholiga muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilib, maxsus seminar va treninglar tashkil etilmoqda, ayniqsa yoshlar va maktab o‘quvchilari orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish namunali yo’lga qo’yilgan.

2. Tibbiyot muassasalarida test va diagnostika: OITS virusini erta aniqlash uchun bepul tahlillar tashkil etilgan. Tug‘ruqxonalar, poliklinikalar va shifoxonalarda homilador ayollarni majburiy ravishda OITS testidan o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan bo’lib, qon topshirish va qon quyish jarayonlarida qat’iy nazorat o‘rnatalган.

3. Risk guruuhlar bilan ishslash: Yuqori xavf guruuhiga kiruvchi shaxslar (masalan, jinsiy xizmat ko‘rsatuvchilar, giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilar) bilan manzilli ishlar olib borilmoqda.

4. Tibbiyot xodimlari o‘rtasida tayyorlov: Tibbiyot xodimlari uchun OITSga oid malaka oshirish kurslari va seminarlar tashkil etiladi. Infeksiya yuqishining oldini olish bo‘yicha sog‘liqni saqlash tizimida qat’iy tartiblar joriy etilgan.

5. Giyohvandlik va nomaqbul jinsiy aloqalarning oldini olish: Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzi targ‘ib qilinmoqda.

Xullas, davlat rahbarining tashabbusi va ko’rsatmasiga ko’ra, barcha viloyatlar kabi Navoiy viloyatida ham aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida salmoqli vazifalar amalga oshirildi va sog‘liqni saqlash tizimida yuksak natijalarga erishildi. Sog‘liqni saqlash sohasida barcha chora-tadbirlar aholi salomatligini asrash hamda kasalliklarga qarshi profilaktik tadbirlarga qaratildi. Tizimga 2021-yilda ushbu maqsadlar uchun 606 milliard

500 million so‘m hamda dori-darmon ta’minoti uchun 30 milliard 400 million so‘m mablag‘ ajratildi. Aholida mavjud kasalliklar va ularni keltirib chiqaruvchi xavf omillari darajasiga ko‘ra 2-xavf guruhi bo‘yicha 346 ming 30 nafar, 3-xavf guruhiga kiruvchi 144 ming 866 nafar, 4-xavf guruhiga kiruvchi 37 ming 134 nafar aholi o‘rtasida skrining tekshiruvlari o‘tkazildi⁸⁰. Natijada, viloyat aholisi orasida kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar o‘z natijasini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova M.D., Abduqodirov X.A. Karimova M.T., Mirzajonova D.B. “Yuqumli kasalliklar”.: Toshkent. “Noshir”. – 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi F-5537-sonli farmoyishi//”Xalq so‘zi”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-243-son qarori . 2-ilova//”Xalq so‘zi” 2022-yil 16-may.
4. “Fan, Muhofaza, xavfsizlik” ilmliy-amaliy jurnali. Toshkent. 2024.
5. Умиров С. Коронавирус: илк сабоқлар, саволлар, ўйлар. // Янги Ўзбекистон. 2020 йил, 10 апрель.
6. Турсунов К., Алимов А. Пандемия ва масъулият. Навоий. “Mashhur-Press”. – 2020 – Б. 179-180.
7. Сидиқов А. Унинг ҳар бир куни қаҳрамонликдир. // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2020, –№25-26. – Б.6.
8. Navoiy viloyati Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi joriy arxivi. 2021-yil ma’lumoti.

⁸⁰ Навоий вилояти ҳокимлиги веб-сайти. URL: <https://navoi.uz> Навоий вилояти ҳокимлиги (navoi.uz) (Murojaat vaqtি: 17.01.2024.)